



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

O‘ZBEK TILI INTERYER DIZAYN TERMINLARINING SHAKLLANISHIDA SHARQ TILLARINING TA’SIRI VA STILLARNING ROLIGA DOIR TAHLILIIY QARASHLAR

Sagina HAQBERDIYEVA*

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek tili interyer dizayn terminologiyasining shakllanish jarayoni va unda Sharq tillarining ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Xususan, arab, fors, turk va boshqa tillardan kirib kelgan terminlarning o‘zbek tilidagi o‘rni, ularning semantik xususiyatlari hamda madaniy-estetik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Sharq uslublarining – islomiy, forsiy, turkiy, hind va yapon dizayn yo‘nalishlarining interyer terminologiyasiga ko‘rsatgan ta’siri haqida fikr yuritiladi. Maqolada milliy va jahon madaniy an‘analarining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida o‘zbek interyer dizayn terminlari boyib borayotgani va global jarayonlarga moslashib borishi ham alohida ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, interyer dizayn, terminologiya, Sharq tillari, uslub, madaniy meros, estetik qarashlar.

Analytical Views on the Influence of Eastern Languages and the Role of Styles in the Formation of Interior Design Terminology in The Uzbek Language

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the formation of interior design terminology in the Uzbek language, focusing on the influence of Eastern languages. In particular, it examines the role of Arabic, Persian, Turkish, and other languages in shaping the terminology, highlighting their semantic layers and cultural-aesthetic significance. The paper also discusses the impact of Eastern styles-such as Islamic, Persian, Turkish, Indian, and Japanese design traditions – on the development of Uzbek interior design vocabulary. Furthermore, the study emphasizes how Uzbek design terminology has been enriched through the synthesis of national traditions and global cultural processes, adapting to modern requirements while preserving its historical roots.

Keywords: uzbek language, interior design, terminology, Eastern languages, style, cultural heritage, aesthetic perspectives.

Interyer dizaynida uslublarning paydo bo‘lishi insoniyat tarixining turli bosqichlari, estetik qarashlar va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Har bir davr, har bir sivilizatsiya o‘ziga xos estetik qarashlarga ega bo‘lib, bu holat

* Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi, saginka2405@mail.ru

interyer dizaynidagi stilistik yondashuvlarning shakllanishiga sabab bo'lgan. Uslublar o'z davrining ijtimoiy-madaniy kontekstini ifoda etgan holda, vaqt o'tishi bilan yangilanib, almashinib borgan.

Zamonaviy interyer dizaynida stil asosiy tashkil etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Stil – bu nafaqat tashqi ko'rinish, balki butun makon falsafasi, undagi uyg'unlik, ranglar, shakllar, materiallar va funksional elementlarning yagona tizimda mujassamlanishidir. Interyerda qo'llaniladigan mebel, bezak elementlari, devor bezaklari, to'qimachilik mahsulotlari, yoritish vositalari kabi komponentlar aynan tanlangan stilga muvofiq holda uyg'unlashtiriladi.

Tarixiy manbalarga asoslanib aytish mumkinki, interyer dizayni qadimdan mavjud bo'lib, u avvalo zodagonlar, hukmdorlar va badavlat qatlamlar yashash joylarini bezash orqali o'z ifodasini topgan. Sharqona naqshlar, muqarnaslar, zardo'z pardalar va boshqa bezak elementlari – bu uslubiy estetik ifodaning tarixiy namunalari sanaladi. Xususan, mehmonxona, ayvon, ayvon peshtoqi va kirish qismlarining bezagi ijtimoiy maqom va estetik qarashlarning ifodasi sifatida xizmat qilgan.

Zamonaviy interyerda esa stil tanlovi faqat estetik maqsadlarga emas, balki funksional, ruhiy va psixologik qulayliklarga ham qaratiladi. Yaxshi stilistik yechimga ega interyer – bu nafaqat ko'zni quvontiruvchi makon, balki inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, hissiy muvozanatni tiklaydigan muhitdir. Stil orqali yaratilgan uyg'unlik makon energetikasini belgilaydi, foydalanuvchiga estetik zavq va ruhiy taskin baxsh etadi: (Zuparova D.D., Karimova N.N. "Dizayn tarixi". O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2014. 112-b).

Sharq tili ta'siri

O'zbekistonda interyer dizayn terminologiyasi shakllanishida arab, fors, turk, tillarining ham o'rni katta bo'lgan. Ayniqsa, islom me'morchiligi va an'anaviy bezak san'ati quyidagi terminlar keng tarqalgan:

T/r	Sharqiy manba	Termin	Izoh	Interyerdagi o'rni
1	Arab	I. MILLIY [xalqona, millatga tegishli; diniy]. II. ISLOMIY	I. Biror millatning, xalqning o'ziga xos bo'lgan, uning xususiyatlarini ifodalovchi. Biror mamlakatga, davlat va uning aholisiga oid. Millat bilan bog'liq, millatiga ko'ra bo'lgan [2:593]. II. Islomiy uslub VIII-XIV	I. Milliy interyer nafaqat uy bezagi, balki xalqning o'zligining ifodasi hamdir. U tarixiy xotirani, milliy ruhni va estetik didni aks ettiradi. Shu sababli milliy interyer makonni bezash bilan birga, unga madaniy-ma'naviy mazmun ham beradi. II. Islomiy uslub interyerda ruhiy uyg'unlik, osoyishtalik va

		USLUB [<i>arab.</i> Islomic style/Moorish style – islom dini va madaniyati].	asrlarda Arab xalifaligi, Andalusiya (Ispaniya), Eron va Markaziy Osiyo hududlarida shakllandi. Uning ildizi Qur'on va hadis asosidagi estetik tamoyillarga borib taqaladi: tasviriy san'at (jonli mavjudodlarni chizish) cheklanganligi sababli geometrik naqshlar, arabeska va xattotlik (kalligrafiya) rivojlandi.	tantanavorlikni beradi. Masjid, madrasalar, saroylar, hammomlar, shuningdek zamonaviy uy interyerlarida ham keng qo'llanadi. Ranglar: moviy, yashil, oltin, oq va jigarrang uyg'unligi bilan ajralib turadi. Islomiy uslub – bu naqshlar, mozaika va kalligrafiyaga asoslangan, estetik va ruhiy uyg'unlikni ifodalovchi dizayn uslubidir.
2	Fors	I. PERSIAN STYLE [<i>eron.</i> Persian – millati va madaniyati bilan bog'liq].	I. Persian uslubi qadimiy Eron madaniyati bilan bog'liq bo'lib, 2500 yildan ortiq tarixga ega va asrlar davomida Ahmoniyar, Sosoniylar va keyinchalik Islom davri ma'morchiligi va san'atida shakllanib, asrlar davomida takomillashgan. Ayniqsa, gilamchilik, naqshinkorlik orqali jahon miqyosida mashhur bo'lgan.	I. Fors gilamlari dunyoga mashhur bo'lib, ularning naqshlari interyerining asosiy bezagi hisoblanadi. Arabesk va islomiy naqshlar – geometrik va o'simliksimon ornamentlar keng qo'llaniladi. Rang palitrasi ko'k, yashil, qizil va oltin ranglardan iborat. Interyerdagi buyumlar orasida o'ymakor yog'och mebel, bronza va sopol idishlar, rangli shisha oynalar ishlatiladi. Shuningdek, baland gumbazlar, ustunlar va mozaikali devorlar interyerga nafislik va hashamat bag'ishlaydi. Fors uslubi interyerda nafislik, boylik va milliy ruhni aks ettiradi, makonga iliqlik, qulaylik va estetik go'zallik beradi.
3	Turk	I. USMONLI USLUBI [<i>turk.</i> Usmonli imperiyasi (Ottoman Empire) bilan bog'liq bo'lib, bu uslub imperiya davridagi arxitektura va	I. Usmonli uslubi (Ottoman style) – bu Usmonli imperiyasi davridagi arxitektura va interyer dizayniga asoslangan san'at yo'nalishi bo'lib, o'ziga xos hashamat, rang-barang dekor va milliy estetikani aks ettiradi. U XVI-XIX asrlarda Turkiya hududidagi saroylar, masjidlar va	I. Uslubning asosiy xususiyatlari orasida rangli keramika va mozaika, naqshli gilam va matolar, past divanlar va o'ymakor yog'och mebellar, shuningdek baland gumbaz va ustunlar alohida e'tiborga loyiqdir. Usmonli uslubi interyerga hashamat, iliqlik va mehmondo'stlik ruhini olib

		interyer bezaklarini ifodalaydi].	jamoat binolari interyeri orqali shakllangan.	kiradi, makonni boy va dekorativ jihatdan qiziqarli qiladi. Rang-barang naqshlar va tabiiy materiallar bilan uyg'unlashgan uslub, ayniqsa saroylar, mehmonxonalar, restoran va kafe interyerlarida o'zining zamonaviy talqinlari bilan qo'llaniladi.
4	Xitoy	I. FENG SHUI [xitoy. Feng – shamol, shui – suv]. II. CHINOISERI E [	I. Feng shui uslubi qadimiy Xitoy madaniyati va falsafasidan, ayniqsa Daoizmdan ildiz olgan. Milloddan avvalgi 4000-5000 yillik tarixga ega bo'lib, dastlab me'morchilik va yer tanlashda qo'llanilgan. Keyinchalik u uy, bog' va interyer dizaynida keng qo'llanila boshlandi.	I. Feng Shui interyerga tinchlik, osoyishtalik va qulaylik olib kiradi. Xonaga energiya balansini yaratish, ruhiy va jismoniy salomatlikni qo'llab-quvvatlaydi. Uy, ofis, mehmonxona va jamoat makonlarida qo'llaniladi. Feng Shui – bu energiya oqimi va tabiiy elementlar orqali makonni uyg'unlashtirish va ruhiy osoyishtalikni ta'minlash san'atidir.
5	Yaponiya	I. YAPON MINIMALIZMI [lot. minimus – “eng kichik, juda oz, minimal].	I. Yapon minimalizmi Zen falsafasi asosida shakllangan bo'lib, ortiqcha buyum va bezaklardan voz kechib, faqat zarur elementlarni qoldirish g'oyasini bildiradi. XVII-XIX asrlarda Yaponiya uylarida tatmi, slid eshiklar, tabiiy yog'och va past yoritish bilan shakllangan. XX asrning o'rtalarida bu uslub zamonaviy interyer dizaynida minimalizm oqimi bilan uyg'unlashadi, global mashhurlikka erishadi.	I. Yapon dizayni estetik nafisligi, mukammabligi va milliy an'analar ruhiga singgani bilan jahon san'atida o'ziga xos o'rin egallaydi. Asrlar davomida shakllanib, milliy hunarmandchilik, ma'naviy qadriyatlar va funksionallikni uyg'unlashtirgan. Yaponlar cheklangan hudud va murakkab iqlim sharoitlariga moslashib, amaliy qulaylik va badiiy go'zallikni uyg'unlashtira olgan. Interiyerdagi o'rniga kelsak, yapon uslubi tabiiy materiallardan foydalanish, ixcham joylashuv, soddalik va iyerogliflar orqali estetik ifodani kuchaytirish bilan ajralib turadi. Natijada makon nafaqat qulay, balki ruhiy osoyishtalik beruvchi san'at asariga aylanadi [6:79].

7	Hind	I.HIND USLUBI [hind. Hindiston madaniyati va an'analariga asoslangan interyer va me'moriy uslub bo'lib, rang-baranglik, bezak va ekzotik elementlar bilan ajralib turadi].	I. Ushbu uslub qadimiy Hindu, Budda va Mug'al imperiyasi davrlaridan ildiz olgan. Hindistonning boy tarixiy madaniyati va diniy an'analari (Hinduizm, Buddizm, Islom ta'siri) interyer bezaklarida o'z ifodasini topgan.	I. Hind interyeri o'ziga xos rang-barangligi, milliy naqshlar va hashamatli dekor elementlari bilan ajralib turadi. Bu uslub arkalar va ustunlar, o'ymakor yog'och mebellar, past divanlar, yumshoq to'shak va rangli yostiqlar interyerining asosiy qismini tashkil etadi. Ipak va atlas matolar, naqshli pardalar, gilamlar makonga yanada joziba beradi. Bezatishda bronza va spool idishlar, diniy ramzlar, haykallar va freskalar keng qo'llaniladi. Yorqin qizil, sariq, ko'k, yashil va oltin ranglar uyg'unligi esa xonaga jonlilik bag'ishlaydi. Umuman olganda, hind interyeri – bu saroyona hashamat va milliy an'analarni uyg'unlashtirgan, makonga quvnoq, iliq va ekzotik kayfiyat baxsh etuvchi uslubdir.
8	Mon-goliya	I. MONGOL USLUBI [mon. yurt (ger), tabiiy materiallardan ishlangan buyumlar, ixcham mebel va milliy naqshlar asosiy belgilar sifatida tushuniladi].	I. Mo'g'ul uslubi (Mongol style) – bu ko'chmanchi mo'g'ullar hayot tarsi va ularning boy madaniy merosiga asoslangan interyer va me'moriy yo'nalishdir. U XIII-XIV asrlarda, Buyuk Mo'g'ul imperiyasi davrida shakllanib, keyinchalik Tibet, Xitoy va Markaziy Osiyo san'ati bilan uyg'unlashgan.	I. Uslubning asosiy belgilaridan biri – yurt (ger) bo'lib, ko'chmanchi hayot tarziga mos ravishda ixcham, ko'chirishga qulay va tabiiy materiallardan qurilgan. Interiyerdagi buyumlar yog'och, kigiz, jun va teridan ishlanib, geometrik naqshlar, hayvoniy ramzlar va shamanistik belgilar bilan bezatilgan. Ko'k, oq, qizil va jigarrang ranglar ustuvor bo'lib, ular osmon, tabiat va hayotiy kuchni ifodalaydi.

Sharq terminlari ko'proq milliy uslubdagi interyer dizaynida, ayniqsa, tarixiy obidalarining restavratsiyasida keng qo'llaniladi.

Xulosa

O'zbek tili interyer dizayn terminologiyasining shakllanishida Sharq tillarining ta'siri beqiyosdir. Arab, fors, turk va boshqa Sharq xalqlari tillaridan kirib kelgan terminlar nafaqat lug'aviy boylikni kengaytirdi, balki milliy interyer madaniyatining

estetik va ma'naviy jihatlarini ham belgilab berdi. Shuningdek, Sharq uslublari – islomiy, forsiy, turkiy, hind va yapon dizayn an'analari – o'zbek interyer terminologiyasida mazmuniy qatlamlarni shakllantirdi.

Zamonaviy o'zbek interyer dizayn terminlari tarixiy ildizlar bilan uyg'un holda, bugungi global jarayonlar ta'sirida ham rivojlanmoqda. Bu esa o'zbek tilining sohada nafaqat milliy an'analarni, balki xalqaro uslubiy oqimlarni ham aks ettira olish qobiliyatidan dalolat beradi. Demak, Sharq tillaridan kirib kelgan terminlar va Sharq uslublari o'zbek interyer dizayn leksikasining boyishi, takomillashuvi va ilmiy-nazariy asoslarining mustahkamlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

Madvaliyev A. (2006). *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 1-jild, A-D. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.

Madvaliyev A. (2006). *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 2-jild, E-M. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.

Madvaliyev A. (2006). *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 3-jild, N-Tartibli. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti.

Madvaliyev A. (2006). *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 4-jild, Tartibot – Shukr. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.

Madvaliyev A. (2006). *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 5-jild, Shukrona – H. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.